

## **"Alhagi turkum o'simliklarining metabolitlari" nomli monografiya chop etildi**

O'zR FA O'simlik moddalari kamyosi instituti olimlari tomonidan "*Alhagi* turkum o'simliklarining metabolitlari" nomli monografiya nashr etildi.



Monografiyada dunyo florasidagi *Alhagi* Tourn. ex Adans. turkumiga mansub o'simlik turlaridan ajratilgan ekstraktiv moddalar va individual holdagi birikmalarning kimyoviy tarkibi va biologik faoliyklarining o'rganilanlik darajasi, geografik tarqalishi bo'yicha ilmiy adabiyot ma'lumotlari jamlangan. Birinchi marotaba alkaloidlar, terpenoidlar, fenol birikmalar, uglevodorodlar, lipidlar va uglevodlarga mansub 460 dan ortiq birikmalarning tuzilishlari to'liq namoyon etilgan. Ajratilgan birikmalar tahlil qilinganda ular orasida fenol birikmalar sinfi, jumladan flavonlar, flavonollar, flavononlar, izoflavonlar, izoflavonolignanlar va flavon-3-ollar guruhi flavanoidlari miqdoriy jihatdan ko'pligi aniqlandi. Ma'lum bo'ldiki, bir xil turdag'i metabolitlar sifat jihatdan o'simlikning o'sish joyining ekologik-geografik va tuproq iqlim sharoitlariga bog'liq. Monografiyada keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, *Alhagi* turkumiga mansub o'simliklar yangi turdag'i istiqbolli dori vositalarini yaratishda muhim hisoblanadi.

Ushbu monografiya bioorganik kimyo, biologiya, farmakologiya sohasida ishlaydigan mutaxassislarga, shuningdek, shu sohaga oid magistr va bakalavrлarga mo'ljallangan.